

## **BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA ADABIY TAHLIL MALAKASINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI**

**Gulmira Zulaypoyeva**

Farg'ona politexnika instituti o'qituvchisi

[gulizulaypoyeva95@mail.ru](mailto:gulizulaypoyeva95@mail.ru)

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda ushbu jarayonning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi hissasi haqida so'z yuritiladi.

### **Kalit so'zlar:**

Adabiy tahlil, sifat bosqichi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, intellektual salohiyat, ta'lim sifati.

### **Annotation.**

This article discusses the identification of didactic opportunities for primary school pupils on the basis of methods of formation and improvement of skills of literary analysis, as well as the contribution of this process to increase the effectiveness of the educational process.

### **Keywords:**

Literary analysis, quality stage, pedagogical technologies, innovative education, intellectual potential, quality of education.

### **Аннотация.**

В данной статье обсуждается выявление дидактических возможностей учащихся начальных классов на основе методов формирования и совершенствования навыков литературного анализа, а также вклад этого процесса в повышение эффективности образовательного процесса.

### **Ключевые слова:**

Литературный анализ, этап качества, педагогические технологии, инновационное образование, интеллектуальный потенциал, качество образования.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limiy islohotlarning ikkinchi - sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda dastur mazmuniga tegishli o'zgartirishlarni kiritish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. O'zbek olimlaridan N.Sayidahmedov, J.Yo'ldoshev, M.Ochilov, E.G'oziyev, B.L.Farberman, N.Azizxo'jayeva, O'.Tolipov, U.Nishonaliyev va Ch.Mirzayev, R.Ergashev, B.Raximov, P.Xolmatov kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim tizimiga mos jihatlarni ishlab chiqdilar. Ammo qayd etilgan ishlarda aynan boshlang'ich sinflar o'quvchilarining yosh xususiyatiga xos bo'lgan ta'limni maqsadli zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish masalasi alohida muammo sifatida o'rganilmagan. Chunki ta'lim jarayoni ko'p bosqichli yaxlit tizimga ega bo'lib, uning

har bir bosqichi ta'lim oluvchilarning yosh hamda o'ziga xos xususiyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi intellektual qobiliyatiga hamda ta'limni izchil, tizimli va uzviy amalga oshirilishiga bog'liqdir.

Boshlang'ich siflarda o'quv jarayonini texnologik yondashuvlar asosida tashkil etishda o'quvchi bo'lajak mutaxassis sifatida ta'lim jarayonining bosh obyekti va subyekt ekanligini ko'plab olimlar e'tirof etgan bo'lsada alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Uning ehtiyoji, qobiliyati, qiziqish va imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va ta'lim so'ngida erishiladigan natijasi o'z takomiliga ega emas. Bu esa yuqoridagi mavzuning qanchalik dolzarbligini ko'rsatadi.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan. [1, 7] Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Birinchi Prezidentimiz o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim," deb ta'kidladi. [2, 61]

Shundan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida didaktik imkoniyatlarini aniqlash borasidagi ilmiy izlanishlarni aniqlash tadqiqot ishining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida didaktik imkoniyatlarini aniqlashdan ham iboratdir va bu mavzu o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- ✓ boshlang'ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoni asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarni belgilash;
- ✓ boshlang'ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoni asosida tashkil etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash;
- ✓ boshlang'ich sinflarda uyg'unning adabiy-badiiy asarlarini tahlil qilishning filologik-pedagogik talqini.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida didaktik imkoniyatlarini aniqlash muammosiga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini o'rganish, nazariy jihatdan tahlil etish, boshlang'ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishning mavjud holatini o'rganish, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so'rovi, pedagogik tajriba, matematik-statistik metodlar asosida ish olib borishni kirgazishimiz mumkin.

Yuqoridagi dolzarb mavzuning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar va boshqalarni ko'rsata olamiz.

Mazkur mavzuni atroflicha o'rganish orqali boshlang'ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish vositasida ta'lim samaradorligiga erishish mumkin, agarda:

- ✓ mazkur o'quv maskanlarida ta'limni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv qaror topsa;
- ✓ boshlang'ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari jarayonida fanlararo aloqadorlikning ta'minlaniga erishilsa;

- ✓ boshlang'ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishni amaliyotga tatbiq etilishiga erishilsa;
- ✓ boshlang'ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullariga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida ilgari surilgan nazariy qarashlar boshlang'ich siflarda ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodkasi. –T. 2009.